



**BOSHLANG‘ ICH SINF O‘ QUVCHILARINI FE‘L SO‘Z TURKUMI BILAN  
TANISHTIRISH METODIKASI**

Yo‘ldosheva Zuxra Olimjon qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti „Boshlang‘ich ta‘lim“ fakulteti 3 - bosqich talabasi

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda fepl so‘z turkumini o‘rgatish haqida umumiy ma‘lumot berilgan . Hamda boshlang‘ich sinflarda fe‘l so‘z turkumini o‘rgatish , ular orasidagi izchillik , mavzular orasidagi bog‘lanishlar har bir sinf kesimida bu mavzuni o‘rgatish hajmi yoritib berilgan. Shuningdek , boshlang‘ich sinf darslarida o‘rgatiladigan fe‘l so‘z turkumi tahlil qilib berilgan

**Kalit so‘zi :** Metodika , Ona tili o‘qitish metodikasi , Savod o‘rgatish metodikasi , Morfologiya , so‘z turkumi , so‘z , fe‘l , fe‘l so‘roqlari , bo‘lishli fe‘l , bo‘lishsiz fe‘l , shaxs - son qo‘sishchalari , zamon qo‘sishchalari , nutq o‘stirish metodikasi .

**Аннотация:** Это в статье представлены общие сведения о преподавании глагольных словосочетаний в начальных классах, согласованность между ними, связи между темами, объем преподавания этой темы в каждом разделе класса. Также анализируется глагольная фразеология, преподаваемая на уроках начальной школы.

**Ключевые слова:** Методика, Методика обучения родному языку, Методика обучения грамоте, Морфология, словарный запас, слова, глагол, глагольные вопросы, глагол-причастие, глагол причастие-инфinitив, лисо-числовые наречия, временные наречия, развитие речи, методика.

**Annotation:** This the article provides general information about teaching help vocabulary in primary grades. Also, the teaching of verb phrase in elementary grades , the consistency between them, the connections between topics, and the scope of teaching this topic in each grade section are highlighted. Also, the verb phraseology taught in primary school classes is analyzed.

**Key words:** Methodology, Mother tongue teaching methodology, Literacy teaching methodology, Morphology, vocabulary , word, verb, participle infinitive verb, person-number,speech,development,methodology.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda yuqori sinflarda ona tilini o‘qitishning dastlabki bosqichlari o‘rgatiladi. Shu bilan birgalikda xuddi yuqori sinflarda ona tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgani kabi Boshlang‘ich sinflarda ham ona tili o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuningdek , Boshlang‘ich sinflarda ona tili darsining morfologiya bo‘limida fe‘l so‘z turkumini o‘rgatishda dastlabki tushunchalar o‘rgatib boroladi. Shu jumladan , Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga fe‘l so‘z turkumini o‘rgatish sinflar kesimida etapma - etap o‘rgatib boriladi. Bunda ya‘ni Boshlang‘ich sinflarda fe‘l so‘z turkumini o‘rgatishni asosiy vazifalari : Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fe‘l so‘z turkumi haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish , o‘quvchilarni yozma va og‘zaki nutqini fe‘llar bilan boyitish , og‘zaki va yozma nutqda fe‘llarni yaxshi bilgan holda ulardan



foydalinish ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi . Boshlang'ich sinflarda fe'l so'z turkumini o'rganish ma'lum bir izchillikda olib,boriladi.

Boshlang'ich sinflarda 1-sinf o'quvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatish o'quvchilarni savodga o'rgatish davridanoq boshlanadi. Bu davrda o'quvchilarga fe'lni leksik ma'nosi o'rgatiladi. Bunda o'quvchilar predmetning harakatini bildiruvchi muhim nazariyalar bilan tanishtirilib boriladi. Fe'lni o'rgatishda olib boriladigan mashqlarni „Alifbe“ dagi so'zlar va undagi sasmlarga qarab gap tuzish va mashqlarni o'qish va bajarish bilan bog'lagan holda o'rganiladi. Bunda o'qituvchi opquvchilar bilan individual ishlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning gap tuzishida mazmunga mos keladigan fe'llarni topishga , bu fe'llarning gapda qanday ma'noni anglatib kelayotganiga qarab qanday so'roqqa javob bo'lishini aniqlashlari uchun sharoit yasatib beradi. Masalan , rasmida tasvirlangan bolachalar , bog‘ , daraxtlar , mevalarni ko'rib o'qituvchi tomonidan aytilgan gaplarni mazmunga mos keladigan so'zlar bilan to'ldirishga harakat qiladilar : Bog‘da mevalar nima qiladi? ... (pishadi) , Bolalar mevalarni nima qiladi? ... (teradi) , Bolalar bog‘da nima qilyaptilar? ... (ishlayaptilar). Fe'lni o'rgatishda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ish - harakatni bildirgan so'zlarni va bu so'zlarning ma'nosiga mos keladigan so'roqlarni berish o'rgatib boriladi. Bunda ( nima qilyapti?) o'qiyapti , yozyapti , (nima qildi?) o'qidi , yozdi , gapirdi , so'zladi , (nima qiladi?) yozadi , gapiradi kabi misollar orqali o'quvchilar sind xonasida yoki uyda , ko'chada bajargan ish - harakatlarini aytishlari bilan ularda dastlabki tushunchalar shakllantiriladi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga so'roq berish bilan ish - harakatni va holatni bildiradigan fe'llarni so'roqlarga mos ravishda tanlab borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchilarni so'zlarga so'roq berish va ularning ma'nosini bir - biridan farqlashni o'rgatadi. Ya'na bu davrda o'quvchilarga nima ? so'rog'i bilan nima qilyapti ? so'roqlari oprtasidagi farqni , shu jumlada bu so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlarning ma'nosini ham farqlashni o'rgatib borish talab qilinadi. Bunda o'quvchilar nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar predmetni , nima qilyapti? nima qiladi? nima qildi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar esa o'sha predmetning holatini , harakatini , bajargan ishini ifodalab kelayotganini farqlaydilar. Bu orqali o'quvchilar ot so'z turkumi va fe'l so'z turkumini farqlashni o'rganadilar. Shuningdek ularni og'zaki va yozma nutqda bajaradigan vazifasini (bir - biriga ta'sirini ) ham imkon darajasida aniqlashga harakat qiladilar. Shuningdek , fe'lga so'roq berishni o'rgatish davomida bir kishi tomonidan amalga oshirilgan ish- harakatni anglatgan so'zlarni va uning so'roqlarini va ikki yoki undan ortiq kishi tomonidan amalga oshirilgan ish -harakatni anglatgan so'zlarni va uning so'roqlarini o'rganishlari,lozim

2-sinfda Fe'l so'z turkumi o'quvchilarga yanada chuqurroq o'rgatiladi. Bunda o'quvchilarda yanada yaxshiroq so'roq berish va bu soproqlarga mos javoblar berish ko'nikmalarj yanada shakllantiriladi. Binda o'quvchilardan o'zları ishtiroyida bajargan ish- harakatni bildirgan jarayonlarni fe'llar ishtiroyida va uning so'roqlari orqali aytishlari salab qilinadi. Bu dars jarayoni misolida ham olib borilishi mumkin. Unda bu jarayon fellarning nima qildi? nima qiladi? nima qilyapti? nima qildilar? nima qiladilar? nima qilyaptilar? kabi so'roqlar va ilarning ma'nosiga mos keladigan ish-harakatni bildirgan so'zlar yordamoda amalga oshirilib boradi. Bu sinfda bularni o'rgatishdan asosiy maqsad o'quvchilarda : „ Nima qildi? nima qiladi? nima qilyapti? kabi so'roqlarga javob bo'lgan , predmet harakatini bildirgan so'zlar Fe'l deyiladi. Fe'l gapda kesim vazifasida keladi“ degan umumiy xulosani



shakllantirish hisoblanadi. 3-sinfda o'quvchilarga fe'l so'z turkumining keyingi bosqichi , ya'ni bo'lishli va bo'lishsiz shakllari o'rgatib boriladi. Bunda o'quvchilar ishtirokida bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni amalga oshirish orqali bo'lishli va bo'lishsiz fe'lning umumiyligini qoidalari keltirib chiqariladi:Fell harakatning amalga oshirilganini (yozdi) , ayni vaqtida amalga oshirilayotganini (yozyapti) , keyin amalga oshirilishini (yozadi) bildirgan fe'llar bo'lishli fe'llar hisoblanadi. Lekin ba'zi fe'llar aksincha, harakatning amalga oshirilmaganligini (yozmadi), ayni vaqtida amalga oshirilmayotganligini (yozmayapti), keyin ham amalga oshirilmasligini (yozmaydi) bildirgan fe'llar bo'lishsiz fe'llar hisoblanadi deb o'rgatiladi. Shuningdek, bo'lishsiz fe'llarning -ma qo'shimchasi yordamida hosil qilinishi, uning yozilishi va o'qilishining bir-biridan farqlarini ham o'rganadilar. Bu ko'nikmalarni o'quvchilar mashqlar orqali mustahkamlab boradilar. Buda o'quvchilarning mashqlar orqali fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarining yasalishi , tuzulishi , o'qilishi va yozilishidagi farqlari , bu fe'llar bilan gaplar tuzish ko'nikmalar shakllantiriladi. 4-sinfda o'quvchilarga fe'llar shaxs-son qo'shimchalari va zamon qo'shimchalari orqali o'zgarishi haqidagi dastlabki ko'nikmalar shakllantitiladi. Bunda o'quvchilatda bu sinfda fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari haqida dastlabki ko'nikmalar:harakatni so'zlovchi (1-shaxs) , tinglovchi (2-shaxs) , o'zga (3-shaxs) ekanligi haqidagi ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu darslikda berilgan topshiriqlar turli xil mashqlarni bajarish orqali mustahkamlanadi. Fe'llarning zamon qo'shimchalarini o'rganishda uning 3 zamonni anglatishi , ularning yasalishi va fe'llarning zamon qo'shimchalarini o'rganishlari uchun so'roqlaridan to'g'ri foydalanishlari o'rgatib boriladi. Bunda o'quvchilarda hozirgi, kelasi va o'tgan zamon fe'llari haqida quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi: O'tgan zamon fe'llari ish-harakatning ayni vaqtadan avval bajarilganligini bildirib, nima qildi?so'rog'iga,javob,bo'ladi.

Hozirgi zamon fe'llari ayni vaqtida bajarilayotgan ish-harakatni bildirib , nima qilyapti? so'rog'iga,javob,bo'ladi

Kelasi zamon fe'llari bajarilayotgan ish-harakatning ayni vaqtida emas, unsan so'ng bajarilganligini bildirib, nima qilmoqchi? so'rog'iga javob bo'ladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar fe'llarning zamon shakllarini ularga so'roq berish orqali bilib oladilar. Ularni esa darsliklardagi topshiriq va mashqlar yordamida mustahkamlab boriladi. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Boshlang'ich sinflarda bu mavzuni o'tish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbatni uyg'otish , ularning so'z boyligini oshirish, fe'l so'z turkumi haqidagi dastlabki ko'nikmalarini shakllantirish , ularni takomillashtirishni asosiy maqsad qilib olinadi. Shuningdek , ijtimoiy hayotimizda duch keladigan fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni bilish va tahlil qilish , uni boshqa so'z turkumlaridan ajrata olish , ularga so'roq berish orqali ish-harakatni bildirgan so'zlarni aniqlashning dastlabki ko'nikmalarini egallaydi. Bunday Boshlang'ich sinfda egallagan dastlabki ko'nikmalari orqali o'quvchilar yuqori sinflarida o'z bilimlarini , so'z boyliklarini mustahkamlab , yanada takomillashtirib izchil bilimlarga ega bo'ladilar.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. „Novda Edutainment " Toshkent - 2023 (Ona tili darsliklari )
2. „Novda Edutainment " Toshkent - 2023 („Alifbe" kitobi )
3. A. G'ulomov,, Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent - 2012.
4. Karima Qosimova „, Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent,,Nosir"nashriyoti-2009
- 5.Lex.uz.
6. In.Study.uz